



“TASDIQLAYMAN”

Qatag'on qurbonlari xotirasi  
davlat muzeyi direktor o'rinbosari  
Ashurov Y.X

2022 yil.

---

*“O'z.R.VM. huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi  
binosidagi elektr, issiqlik va oqava suvlar (kanalizasiya) tizimlariga texnik  
xizmat ko'rsatish”*  
(obyekt, ish xizmat nomi)

---

## TANLOV XUJJATI

TOSHKENT  
2022

## **BARCHA TASHKILOTLAR DIQQATIGA!!!**

### **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI QATAG'ON QURBONLARI XOTIRASI DAVLAT MUZEYI**

*(Buyurtmachi nomi)*

***“Muzey binosidagi elektr, issiqlik va oqava suvlar (kanalizasiya) tizimlariga texnik  
xizmat ko'rsatish” uchun***

**TANLOV E'LON QILADI**

---

*Xizmat ko'rsatish muddati – 2022 yilning 1-choragi davomida amalga oshirilishi lozim.  
Umumiy summa 10 500 000 so'm - muzeyi binosidagi elektr, issiqlik va oqava suvlar  
(kanalizasiya) tizimlariga texnik xizmat ko'rsatish uchun.*

**Buyurtmachi: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi.**

**Moliyalashtirish manbasi: Byudjet mablag'lari**

Tanlov ishtirokchilari quyidagi talablarga loyiq bo'lishlari lozim: ish/xizmatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan kamida 5 yillik tajriba hamda yuqorida ko'rsatilgan ish/xizmatlarni bajarish uchun ishchi xodimlarining yuqori malakaga ega ekanliklari, shartnoma tuzish yuzasidan fuqarolik-muomala layoqati vakolatlariga ega va tajribali bo'lishlari shart.

- Tasdiqlangan tanlov hujjatlari buyurtmachi tomonidan joylashtiriladigan davlat xaridlari bo'yicha maxsus axborot portalidan yuklab olishlari mumkin.
- Takliflar tanlov tashkilotchisi tomonidan yuqoridagi manzilda tanlovni e'loniga e'lon qilingan kuni va vaqtiga qadar qabul qilinadi.

*E'lon [etender.uzex.uz](http://etender.uzex.uz) maxsus axborot portaliga berilgan*

## TANLOVDA ISHTIROK ETISH UCHUN TAKLIFNOMA

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi nomidan qo'yilgan e'londa ishtirok etishga tanlov ishtirokchilarini taklif etamiz va quyidagi xizmatni ko'rsatish bo'yicha tanlov taklifini taqdim etilishini so'raymiz.

Ob'yekt nomi : ***Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi binosidagi elektr, issiqlik va oqava suvlar (kanalizasiya) tizimlariga texnik xizmat ko'rsatish***

*Xizmat ko'rsatish muddati – 2022 yilning 1-choragi davomida amalga oshirilishi lozim.*

*Umumiy summa 10 500 000 so'm - muzeyi binosidagi elektr, issiqlik va oqava suvlar (kanalizasiya) tizimlariga texnik xizmat ko'rsatish uchun.*

**Buyurtmachi:** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi.

**Manzil:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Amir Temur ko'chasi, "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuasi

**Loyihani moliyalashtirish manbasi:** Davlat budjeti

Taklif etilgan shartlar bo'yicha tanlovda murojat bilan mahalliy va xorijiy korxonalar va tashkilotlari ishtirok etishlari mumkin.

Agar tanlov predmeti bo'lgan ish (xizmat) larni bajarish bilan bog'liq faoliyat qonun hujjatlariga muvofiq litsenziyalanishi zarur bo'lsa, tanlovda ishtirok etish uchun belgilangan tartibga asosan tegishli litsenziyaga ega bo'lgan tanlov ishtirokchilariga ruxsat etiladi.

Quyidagi tanlov ishtirokchilariga tanlov jarayonlarida ishtirok etishga ruxsat berilmaydi:

qayta tashkil etish (bo'linish, qo'shilish) tugatish yoki bankrotlik arafasida turganlar;

mol-mulki musodaraga olinganlar hamda muassislik kelishuv, moliyaviy ishtirok, xolding va boshqa shaklda ifodalangan bevosita tashkiliy-huquqiy yoki bir-biriga moliyaviy qaramligi mavjud tashkilotlar.

Tanlov taklifini tayyorlash va taqdim etish uchun kerakli barcha hujjatlar tanlov ishtirokchilari uchun yo'riqnomada aks ettirilgan.

Takliflarni ochish tanlov e'lon qilingan sanadan boshlab 5 (besh) ish kunidan so'ng bo'lib o'tadi.